

**O‘RTA ASRLARDAN UYG‘ONISH DAVRIGA O‘TISH: GUMANIZM  
KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA DANTE ALIGIYERI  
ASARLARIDA UNING BADIY - FALSAFIY TALQINI**

*Soatova Aziza Sadridin qizi*

*Termiz davlat universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi  
talabasi*

[azizasoatova011@gmail.com](mailto:azizasoatova011@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Yevropa Uyg‘onish davrining vujudga kelish omillari, gumanizm konsepsiyasining shakllanish jarayoni hamda uning adabiyotdagi aks etishi tahlil qilinadi. O‘rta asrlar cherkov mafkurasi va ritsorlik adabiyotidan Uyg‘onish davri gumanistik tafakkuriga o‘tish jarayoni yoritilib, Dante Aligiyeri ijodi ushbu o‘zgarishlarning muhim bosqichi sifatida baholanadi. Xususan, muallifning “Yangi hayot” va “Ilohiy komediya” asarlarida inson shaxsiyati, muhabbat, ma’naviy kamolot, axloqiy tanlov va insonparvarlik g‘oyalarining badiiy-falsafiy talqini tahlil etiladi. Tadqiqot natijasida Dante ijodi Yevropa gumanizmining shakllanishida muhim o‘rin tutgani va keyingi Uyg‘onish davri adabiyotining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Uyg‘onish davri, gumanizm, Dante Aligiyeri, “Yangi hayot”, “Ilohiy komediya”, insonparvarlik, o‘rta asr adabiyoti, gumanistik tafakkur, Beatricha, Yevropa adabiyoti.

**Annotation:** This article examines the factors that contributed to the emergence of the European Renaissance, the formation of the concept of humanism, and its reflection in literature. The transition from the church-centered ideology and chivalric literature of the Middle Ages to the humanistic thought of the Renaissance is analyzed, while the works of Dante Alighieri are considered an important stage in this transformation. Particular attention is paid to the artistic and philosophical interpretation of human personality, love, spiritual development, moral choice, and humanistic ideas in Dante’s works “Vita Nuova” and “The Divine Comedy”. The study demonstrates that Dante’s literary heritage played a significant role in the formation of European humanism and had a profound influence on the development of Renaissance literature.



**Keywords:** *Renaissance, humanism, Dante Alighieri, Vita Nuova, The Divine Comedy, humanity, medieval literature, humanistic thought, Beatrice, European literature.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются факторы возникновения эпохи Возрождения в Европе, процесс формирования концепции гуманизма и её отражение в литературе. Анализируется переход от церковной идеологии и рыцарской литературы Средневековья к гуманистическому мировоззрению эпохи Возрождения, а творчество Данте Алигьери оценивается как важный этап этого процесса. Особое внимание уделяется художественно-философской интерпретации личности человека, любви, духовного совершенствования, нравственного выбора и гуманистических идей в произведениях Данте «Новая жизнь» и «Божественная комедия». В результате исследования обосновывается значительная роль творчества Данте в формировании европейского гуманизма и его влияние на дальнейшее развитие литературы эпохи Возрождения.*

**Ключевые слова:** *эпоха Возрождения, гуманизм, Данте Алигьери, «Новая жизнь», «Божественная комедия», гуманность, средневековая литература, гуманистическое мышление, Беатриче, европейская литература.*

Yevropa madaniyati tarixida Uygʻonish davri inson tafakkuri, ilm-fan, sanʻat va adabiyot taraqqiyotida tub burilish yasagan muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davr XIV–XVI asrlarni qamrab olib, oʻrta asrlar dunyoqarashidan yangi davr tafakkuriga oʻtish jarayonini aks ettiradi. Uygʻonish davri vakillari insonning aqliy va maʼnaviy imkoniyatlariga yuqori baho berib, uni jamiyat va madaniyatning markaziga qoʻydilar. Natijada, inson shaxsi, uning erkin fikrlashi, ijodiy salohiyati va hayotiy faoliyati adabiyot hamda sanʻatning asosiy mavzusiga aylandi.

Oʻrta asrlarda Yevropa madaniy hayoti, asosan, cherkov taʼsiri ostida shakllangan edi. Adabiyot va sanʻatda diniy gʻoyalar ustunlik qilgan, inson esa koʻproq ilohiy irodaning ijrochisi sifatida talqin qilingan. Biroq, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi oʻzgarishlar, shaharlarning rivojlanishi, savdo-sotiqning kengayishi hamda antik madaniyatga boʻlgan qiziqishning ortishi natijasida inson va uning hayotiga nisbatan yangi qarashlar yuzaga keldi. Ana shu jarayon gumanizm deb atalgan yangi mafkuraviy oqimning shakllanishiga zamin yaratdi. Gumanizm insonni oliy qadriyat sifatida eʼtirof etuvchi, uning erkinligi, qadr-qimmatini va kamolotini ulugʻlovchi dunyoqarashdir. Uygʻonish davri adabiyotida insonning ichki kechinmalari, his-tuygʻulari, maʼnaviy



izlanishlari va hayotiy tajribasi markaziy o‘rin egallay boshladi. Bu jihatdan italiyalik buyuk shoir Dante Aligieryi ijodi alohida ahamiyatga ega. Dante o‘z asarlarida o‘rta asrlar va yangi davr tafakkuri o‘rtasidagi bog‘lovchi halqa vazifasini bajardi. Uning ijodida diniy qarashlar bilan bir qatorda inson shaxsiga bo‘lgan qiziqish, muhabbat, axloqiy tanlov va ma‘naviy komillik masalalari ham chuqur yoritilgan. Mazkur maqolaning maqsadi Yevropa Uyg‘onish davrining shakllanish omillarini tahlil qilish, gumanizm konsepsiyasining vujudga kelish sabablarini yoritish hamda Dante Aligieryi asarlarida ushbu g‘oyalarning badiiy-falsafiy talqinini ochib berishdan iborat.

Uyg‘onish davri Yevropa tarixida yangi madaniy va ma‘naviy bosqichning boshlanishini ifodalaydi. Bu davrning ilk markazi Italiya bo‘lib, keyinchalik Fransiya, Angliya, Germaniya va Ispaniyaga ham tarqalgan. Uyg‘onishning aynan Italiyada yuzaga kelishi bejiz emas edi. Chunki mamlakatda savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida iqtisodiy yuksalish kuzatildi. Venetsiya, Florensiya va Genuya kabi shaharlar nafaqat savdo markazlari, balki ilm-fan va madaniyat markazlariga ham aylandi. XIII–XIV asrlarda Yevropa jamiyatida muhim iqtisodiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Feodal munosabatlarning asta-sekin zaiflashuvi, yangi ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi va shahar hayotining rivojlanishi insonning jamiyatdagi o‘rni haqidagi tasavvurlarni o‘zgartirdi. Endilikda inson faqat diniy hayot bilan emas, balki dunyoviy faoliyat, ilm olish, ijod qilish va jamiyat taraqqiyotida ishtirok etish bilan ham qadrlana boshladi.

Uyg‘onish davri shakllanishining muhim omillaridan biri antik yunon va rim madaniy merosiga qayta murojaat qilinishi bo‘ldi. Gumanistlar qadimgi mutafakkirlar asarlarini o‘rganib, ulardagi insonparvarlik, adolat, ezgulik va aqlga tayanish g‘oyalarni rivojlantirdilar. Antik adabiyot va falsafaga bo‘lgan qiziqish natijasida insonning imkoniyatlari va ijodiy salohiyati haqidagi qarashlar yanada boyidi.

Uyg‘onish davrida ilm-fan ham jadal rivojlandi. XIII – XVI asrlar mobaynida Italiya shaharlarida 22 ta universitet ochiladi; ularda ilohiyot ilmi emas, balki huquqshunoslik, meditsina fanlari o‘rgatiladi. Antik tarix, adabiyot va san‘atni o‘rganish dunyoviy fanlarning rivojiga, shubhasiz, jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar XV – XVI asrlarda buyuk geografik kashfiyotlarni keltirib chiqaradi. Matematika, fizika, astronomiya fanlari sohasida erishilgan qator yutuqlar Uyg‘onish davrida faqat gumanitar bilimlar emas, balki tibbiyot fanlarining ham rivojlanganligidan darak beradi [1].

O‘rta asr Yevropa adabiyoti dastlab feodal tuzum va cherkov mafkurasi ta’sirida shakllangan bo‘lib, unda inson hayoti asosan diniy dunyoqarash asosida talqin etilgan.



Biroq X–XIII asrlar davomida G‘arbiy Yevropada feodal ishlab chiqarish tizimining mustahkamlanishi, shaharlarning rivojlanishi va ijtimoiy tabaqalarning shakllanishi madaniy hayotda sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Natijada, adabiyotda asta-sekin inson shaxsiga, uning his-tuyg‘ulari va real hayotdagi o‘rniga e‘tibor kuchaya boshladi. Ritsarlik adabiyoti dastlab feodal zodagonlarning harbiy-ma‘naviy qadriyatlarini ifodalagan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan unda yangi estetik va axloqiy talablar paydo bo‘ldi. Ritsardan faqat mardlik emas, balki sodiqlik, rostgo‘ylik, xushmuomalalik va ayollarga nisbatan nozik munosabat ham talab etila boshlandi. Ayniqsa, muhabbat mavzusi ritsarlik she‘riyatini markaziy g‘oyasiga aylandi. Bu holat insonning ichki kechinmalariga e‘tibor kuchayganini ko‘rsatadi. X–XIII asrlarda Fransiyaning Provans viloyatida yuzaga kelgan trubadur poeziyasi gumanistik qarashlarning ilk badiiy shakllaridan biri sifatida baholanadi. Bu adabiyotda “ayollar kulti” - ayol shaxsini ulug‘lash, muhabbatni ma‘naviy yuksalish vositasi sifatida tasvirlash yetakchi o‘rin egallaydi. Sevgi endi faqat ijtimoiy majburiyat emas, balki insonning ichki dunyosini boyituvchi ruhiy jarayon sifatida talqin qilina boshladi. Shuningdek, ritsarlik romanlarida qahramonning shaxsiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va individual motivlari tasviriga alohida e‘tibor qaratildi. Bu esa inson shaxsining adabiyot markaziga asta-sekin chiqayotganidan dalolat beradi. Biroq bu asarlarda qahramonlar ko‘pincha idealizatsiya qilingan bo‘lib, real hayotdan uzoqroq tasvirlangan.

Shahar adabiyotining vujudga kelishi esa gumanistik tafakkurning yanada rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Shahar hayotining o‘sishi bilan yangi ijtimoiy qatlam - burjuaziya shakllandi. Shahar adabiyoti ritsarlik adabiyotidan farqli ravishda hayotga real yondashuvi, xalqchil ruhiyati va tanqidiy qarashlari bilan ajralib turdi. Bu adabiyotda oddiy inson, uning aqli, mehnati va hayotiy tajribasi markaziy o‘ringa chiqdi. Fablio janrida esa hayotiy voqealar kulgili va tanqidiy ruhda tasvirlanib, jamiyatdagi kamchiliklar, ayniqsa, cherkov vakillarining ikkiyuzlamachiligi fosh etildi. Fablioniing markazida chaqqon, abjir, aqlli qahramon turadi. Keyinchalik alohida fabliolar bunday qahramon atrofida birlashtirilib, yaxlit holatga keltirilgan va shu tarzda roman paydo bo‘lgan. Turli e‘tirozlarni bir qahramon atrofida jipslashtirish natijasida o‘rta asrlarning eng mashhur asari “Tulki haqida roman” paydo bo‘lgan [2]. “Tulki haqida roman” kabi asarlarda esa feodal jamiyat vakillari obrazlari satirik tarzda berilib, oddiy insonning aql-idroki va tadbirkorligi ulug‘landi. Umuman olganda, ritsarlik va shahar adabiyotining rivojlanishi o‘rta asr diniy dunyoqarashidan inson markazli tafakkurga o‘tish jarayonini boshlab berdi. Aynan shu jarayon Yevropa



Uygʻonish davri gumanizmining shakllanishiga zamin yaratdi. Gumanizm aynan ana shu tarixiy sharoit mahsuli sifatida shakllandi. Gumanistlar insonni borliqning faol ishtirokchisi deb hisobladilar. Ular insonning aql-zakovati, maʼnaviy dunyosi va ijodiy imkoniyatlarini ulugʻladilar. Inson shaxsiga boʻlgan bunday eʼtibor oʻrta asrlar adabiyotidan keskin farq qilardi. Agar avvalgi adabiyotda diniy qahramonlar va ilohiy moʻjizalar markazda turgan boʻlsa, endi insonning oʻzi, uning his-tuygʻulari, orzu-tilishlari va ichki kechinmalari badiiy tasvirning asosiy obyektiga aylandi.

Gumanistik tafakkurning shakllanishida xalq ogʻzaki ijodi va ritsoqlik adabiyotining ham muayyan oʻrni boʻlgan. Ritsoqlik romanlarida sadoqat, jasorat, muhabbat va insoniy fazilatlar madh etilgan boʻlsa-da, Uygʻonish davri adabiyotida bu gʻoyalar yanada chuqurlashdi. Inson ideal qahramon sifatida emas, balki murakkab ruhiy olamga ega boʻlgan shaxs sifatida tasvirlana boshladi. Ana shunday tarixiy va madaniy jarayonlar natijasida Yevropada yangi adabiy-estetik tafakkur vujudga keldi. Bu tafakkurning dastlabki yirik namoyandalaridan biri Dante Aligiery boʻlib, uning asarlarida oʻrta asrlar diniy qarashlari bilan yangi gumanistik dunyoqarash unsurlari uygʻunlashgan holda namoyon boʻladi.

Ikki katta tarixiy davr chegarasida yashab ijod etgan bu ulugʻ siymo haqida F.Engels 1893-yilda “Kommunistik partiya manifesti”ning italyan nashriga yozgan soʻzboshisida: “Feodal oʻrta asrning oxiri va hozirgi zamon kapitalistik davrning boshlanishi buyuk bir zotning nomi bilan bogʻliq. Bu zot - italiyalik Dantedir. U oʻrta asrning eng oxirgi va shu bilan birga yangi zamonning eng avvalgi shoiri edi”, deb yozgan edi [6]. Shu sababli Dante ijodi Uygʻonish davri adabiyotining muhim boshlanish nuqtalaridan biri sifatida baholanadi. Uning ilk biografik asari “Yangi hayot” Yevropa adabiyoti tarixida oʻrta asrlar diniy-estetik tafakkuridan Uygʻonish davri gumanistik dunyoqarashiga oʻtish jarayonini aks ettirgan muhim asarlardan biri hisoblanadi. Asarda muhabbat mavzusi markaziy oʻrin egallasa-da, uning mazmuni faqat romantik kechinmalar bilan cheklanmaydi. Dante muhabbatni insonning maʼnaviy kamolotga erishishida muhim omil sifatida talqin etadi. Asarda tasvirlanishicha, Dante Beatrichani ilk bor toʻqqiz yoshida, Beatricha esa sakkiz yoshida boʻlganida koʻradi. Bu uchrashuv yosh shoir qalbida chuqur iz qoldiradi. Dante ushbu holatni tasvirlar ekan, uning butun vujudi hayajonga tushgani, qalbida ilgari his qilmagan tuygʻular uygʻonganini taʼkidlaydi. Oradan toʻqqiz yil oʻtgach, Beatrichaning oddiy salomi ham Dante uchun ulkan ruhiy voqeaga aylanadi va uning ilk sheʼrlarini yaratishiga turtki beradi. Muhimi shundaki, Dante bu voqealarni oddiy muhabbat sarguzashti sifatida emas, balki inson ruhiyatining murakkab va nozik kechinmalarini



ochib berish vositasi sifatida tasvirlaydi. Asarda muhabbat quvonch, iztirob, umid, sog‘inch va ruhiy poklanish kabi turli hissiy holatlar orqali ifodalanadi. Muallif o‘z qalbida kechayotgan jarayonlarni batafsil tahlil qiladi. Bu esa o‘rta asr adabiyotida kam uchraydigan hodisa bo‘lib, insonning ichki dunyosiga bo‘lgan yangi qiziqishni namoyon etadi. Beatrichaning vafoti bilan bog‘liq sahnalarda ham Dante insoniy qayg‘u va iztiroblarni chuqur tasvirlaydi. Shoir uchun bu yo‘qotish faqat shaxsiy fojea emas, balki hayot, o‘lim va inson taqdiri haqida mushohada yuritishga sabab bo‘ladi. Natijada, muhabbat hissi insonni ma‘naviy yuksalishga olib boruvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Asarning gumanistik mohiyati, avvalo, insonning ichki dunyosiga bo‘lgan e‘tibor orqali namoyon bo‘ladi. O‘rta asrlar adabiyotida inson ko‘pincha diniy aqidalar va ilohiy irodaning passiv ijrochisi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, “Yangi hayot”da shaxsning ruhiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va ma‘naviy izlanishlari tasvir markaziga chiqadi. Dante o‘zining Beatrichaga bo‘lgan muhabbatini tasvirlar ekan, inson qalbining eng nozik holatlarini, quvonch va iztiroblarini, umid va armonlarini chuqur tahlil qiladi. Bu esa inson shaxsining adabiyotdagi mavqeini yuksaltirgan yangi badiiy qarashning namunasi. Asarda xalq tilining qo‘llanilishi ham gumanistik qarashlar bilan bog‘liqdir. Dante lotin tilidan voz kechib, asarni italyan xalq tilida yaratadi. Bu orqali u adabiyotni keng kitobxonlar ommasiga yaqinlashtirishga intiladi. Inson va uning tuyg‘ularini ulug‘lash bilan bir qatorda, xalq tilining adabiy til sifatida e‘tirof etilishi ham Uyg‘onish davri madaniyatining muhim xususiyatlaridan biri edi.

Dante Aligiyerining “Ilohiy komediya” asari Yevropa adabiyoti tarixida o‘rta asrlar va Uyg‘onish davri o‘rtasidagi muhim ko‘prik vazifasini bajaradi. Asarda xristian diniy dunyoqarashi yetakchi o‘rin egallasa-da, inson shaxsi, uning ichki kechinmalari va axloqiy tanlovlariga bo‘lgan e‘tibor kuchaygani kuzatiladi. Shu jihatdan Dante ijodida keyinchalik Uyg‘onish davri gumanizmining asosiga aylangan ayrim qarashlar shakllana boshlaganini ko‘rish mumkin. “Ilohiy komediya”ning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, muallif insonni faqat gunohkor yoki solih mavjudot sifatida emas, balki murakkab ruhiy olamga ega shaxs sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, “Do‘zax” qismining beshinchi qo‘shig‘ida Paolo va Francheska obrazi orqali bu jihat yaqqol namoyon bo‘ladi. Ular cherkov ta‘limotiga ko‘ra gunohkor sanalsalar ham, Dante ularni yovuz yoki qabih insonlar sifatida ko‘rsatmaydi. Aksincha, muallif ularning muhabbati, iztiroblari va fojeali taqdirini tasvirlash orqali o‘quvchida hamdardlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Natijada qahramonlar diniy hukm obyektidan ko‘ra, avvalo, inson sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda Francheskaning hikoyasi alohida



ahamiyatga ega. U o'z qismatini hikoya qilar ekan, muhabbatni inson hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi ma'naviy qudrat sifatida talqin qiladi. Dante bu voqea orqali inson his-tuyg'ularining murakkabligini ochib beradi. Muhabbat gunoh manbai sifatida emas, balki inson tabiatining ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. Shu sababli o'quvchi qahramonlarni qoralashdan ko'ra, ularning fojeasini tushunishga intiladi. Bu holat esa gumanistik tafakkurning muhim belgilaridan biri bo'lib, inson ruhiyati va hissiyotlariga bo'lgan qiziqishni ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Ilohiy komediya"da insonning ichki dunyosiga qiziqish, muhabbat va insoniy his-tuyg'ularning ulug'lanishi, antik madaniyatga murojaat qilinishi hamda inson shaxsining qadr-qimmatiga e'tibor qaratilishi orqali gumanistik g'oyalar namoyon bo'ladi. Shu sababli Dante Aligiyeri ijodi Yevropa Uyg'onish davri gumanizmining shakllanishida muhim o'rin tutgan adabiy hodisalardan biri sifatida baholanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hamdamov Ulug'bek, Qosimov Abdug'opir. Jahon adabiyoti (Darslik). – Toshkent: "Akademnashr", 2024. – b.320
2. Qosimov Abdug'opir, Xo'jayev Sidiq. Jahon adabiyoti: Antik davrdan XVII asrgacha (o'quv-uslubiy qo'llanma). – Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2016. – b.234
3. Hamdamov Ulug'bek, Qosimov Abdug'opir. Jahon adabiyoti (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2017. – b.352
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - Toshkent: O'zbekiston, 2002.
5. Oripov Abdulla. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. Uchinchi jild: Tarjimalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001.
6. Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi (Ilk o'rta asrlar, Uyg'onish davri va XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti). – Toshkent: O'qituvchi, 1979. – b.320
7. Sawyer Nick. Sympathy for the Damned: Humanism in Canto V of Inferno. Essay. 2010. URL: <https://bu.digication.com/nicksawyerantoportfolio1/Welcome/publish>
8. Bowers John Leslie. The Humanism of Dante. Thesis presented for the Degree of Doctor of Philosophy in the University of Cape Town. – Cape Town, November 1960. – 464 p.
9. Ibragimbekov Rustam. Dantening «Ilohiy komediya»sida timsollar talqini. Maqola. 2017. URL: <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/rustam-ibragimbekov-dantening-ilohiy-komediya-sida-timsollar-talqini.html>